

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI  
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
O‘zbek filologiyasi fakulteti  
dekani \_\_\_\_\_ f.f.n. Sh.Nuriddinov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016- yil

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim  
yo‘nalishi  
III bosqich 013-32-guruh talabasi

**Akramova Muhayyoning**

**BOLALAR HIKOYACHILIGIDA OBRAZ YARATISH  
MASALASI**

**mavzusida yozgan**

**R E F E R A T I**

Talaba \_\_\_\_\_ M. Akramova  
Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ f.f.n.S.Jumayeva  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016- yil

**“Himoyaga tavsiya etildi”**  
Adabiyotshunoslik kafedrası  
mudiri \_\_\_\_\_ f.f.d. N.Shodmonov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016- yil

**QARSHI -2016**

## ***Bolalar hikoyachligida obraz yaratish masalasi***

### ***Reja:***

- 1. Bolalar hikoyachligining o'ziga xos xususiyatlari.*
- 2. Bolalar hikoyachligida obraz yaratish masalasi.*
- 3. Bolalar hikoyachligida qahramon obrazini  
individuallashtirish.*
- 4. Hikoyada ishtirok etuvchi kattalar obrazi.*
- 5. Bolalar hikoyachligining ta'limiy ahamiyati.*

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va shu qonun talabalarini o'zida mujassamlashtirgan uni ruyobga chiqarish tamoyillarini belgilab bergan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limni tubdan isloh qilish asoslari belgilab berildi. Bu qonunlar talabi bilan ishlab chiqilgan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va shu asosda yaratilgan dasturlarda mamlakatimizdagi barcha ta'lim turlarida uzluksiz ta'limning tamal toshi quyiladi. Bu borada Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab quyilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab-quvvatlanishini talab qiladigan umumilliy masaladir. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq."<sup>1</sup> Zero, "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi"<sup>2</sup> ma'naviy va axloqiy poklanish iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga to'g'ri kelishidan tashqari kichkintoylarga tushunarli va qiziqarli bo'lishi zarur.

Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan yosh avlodning ongi xarakteri va irodasini o'stirib, chiniqtirishda ularni vatanparvar va mexnatsevar kishilar

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch"-T: "Ma'naviyat". 2008, 61-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "Sharq"1997, 9-bet.

qilib tarbiyalashda xalqqa , mustaqil davlatimizga katta yordam berishlari zarur . Bolalarga bag'ishlab yoziladigan asarlarning jozibasi, kuch-qudrati shundaki, ularda ta'lim-tarbiyaviy yoki ahloqiy masalalar bevosita bolalar dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari fonida tasvirlanadi. Shu ma'noda maktab yoshidagi kichik bolalar adabiyoti diqqatga sazovordir. Bu davr adabiyoti bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o'yinlari, orzu-intilishlari haqida hikoya qilib beradi.Bolalarda badiiy asarlarga munosabat ularning yoshi va bilim saviyasiga bog'liq. Shunga ko'ra ularga tavsiya etiladigan asarlar o'ziga xos xususiyatlari bilan o'rta va katta maktab yoshidagi bolalar asarlaridan farqlanib turadi. Bu farqlilik ayniqsa, bolalar hikoyachiligida ko'zga yaqqol tashlanadi.Mavzuining dolzarbligi, eng avvalo unda ana shu masalalar keng ko'lamda yoritilganligi bilan belgilanadi.

**Mavzuning maqsad va vazifalari.** Ilmiy ishimizning asosiy maqsadi maktab yoshidagi bolalar hikoyachiligining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi:

-maktab yoshidagi bolalar hikoyalarining janr xususiyatlarini belgilash;

-obrazlar tarkibini tadqiq etish, shundan kelib chiqib obraz va obrazlilik tushunchasiga oydinlik kiritish;

-ta'limiy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati xususida to'xtalish.

**Ilmiy yangiligi.** Bolalar hikoyachiligining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asnosida hikoya janrining bolalar ma'naviy tarbiyasida tutgan o'rni ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Hikoya orqali bolalar, avvalo so'zlarining aniqligi, ma'nodorligini anglab oladilar. Shuningdek, hikoya nutqining xilma-xilligini, xazil-

mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon qiladi. Bolalikdagi eng qiziqarli voqealar turli –tuman hodisalar, o'yinlar obrazlar vositasida hikoyalarida mujassam. Tahlil jarayonida ana shu jihatlarga imkon qadar to'xtalib, ilmiy xulosalar chiqardik.

Xalqimizning bolalar tarbiyasini nihol parvarishiga qiyoslaydi. Agar bog'bon yaxshi bo'lsa, uning o'stirgan nihollari kelajakda shirin-shakar mevali, muazzam daraxtlarga aylanadi. Farzand-bola ham xuddi ana shunday. Uning kamol topishida oila, maktab, jamoatchilikning tarbiyachilik roli bilan birgalikda badiiy adabiyot ham katta o'rin tutadi.

Shunga ko'ra tadqiqot natijalaridan yosh avlodga milliy, madaniy va ma'naviy tarbiya berish samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

### **Bolalar hikoyachligida obraz yaratish masalasi.**

Bolalarning o'ziga xos dunyosi, ular orasida sodir bo'luvchi har xil ziddiyatlar, turmushni o'rganishga bo'lgan intilishlar va boshqalar hikoya uchun qiziq material beradi. Tabiiyki, bu hikoyalarning markaziy qahramonlari, asosan bolalarni kundalik hayotda: uyda ko'chada, o'rtoqlari davrasida, kattalar orasida tasvirlab, ularning badiiy obrazini yaratish orqali qalblaridagi yaxshilikka, ezgulikka, go'zallikka intilish, yomonlikka nisbatan murosasiz bo'lish kabi xislatlarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Ma'lumki, bolalar adabiyotning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri aniqlik va ravshanlikdir. Chex shoiri Ya.Olbrax qayd etganidek, "Bolalar uchun yozayotganda "daraxtga qushcha o'tiribdi" kabi umumiy tarzda emas, balki "Olxa (zirk) daraxtida sariq chumchuq o'tiribdi" shaklida aniq yozish kerak". O'zbek yozuvchilarining bolalar uchun yozgan hikoyalarining ko'pchiligida ana shu talablarga rioya qilingan. Shu nuqtai nazarda R.Azizxo'jaevning «Oyijon» va A.Irisovning «Bilmay qolib» nomli . hikoyalarini ko'rib chiqaylik. «Oyijon» hikoyasida muallif bola tabiatidagi bir salbiy xislatning yo'qolish jarayonini aniq voqea tasviri orqali ko'rsatgan. Buning uchun u tazod usulidan foydalangan. Hikoyadagi Qosimjon hamisha «bo'lar-bo'lmas»ga xarxasha qilib, oyisini bezor qiladi. U ammasinikiga borganda o'zi tengi Po'latjonning oyisiga qilayotgan muomalasini ko'rib hayron bo'ladi. Po'latjonning ortiqcha xarxasha qilmasligi, ayniqsa, oyisini «oyijon» deyishi Qosimjonga qattiq ta'sir qiladi. Bola ruhiyatida qandaydir o'zgarish ro'y beradi. Hikoyada qahramonning ichki kechinmalari tasvirlanmagan, balki faqat tashqi harakati xursand qiladi. . yoshdagi-bola hikoyadagi o'z tengdoshining xatti-harakatini aniq voqea ifodasi orqali bemalol tasavvur qila oladi.U uyiga kelishi bilan oyisini «oyijon» deb chaqiradi. Oyisining unga ochiq chehra bilan javob qaytarishi Qosimjonni xursand qiladi.A. Irisovning «Bilmay qolib» hikoyasidagi Rayhonning nojo'ya harakati ham ortiqcha tafsilotlarsiz ko'rsatiladi.

Hikoyada hammasi bo'lib olti jumla bor. Shunisi diqqatga sazovorki, undagi har bir jumla voqeadagi pedagogik fikrni yanada kengroq ochishga xizmat qiladi. Hikoya shunday boshlanadi: «Rayhon yong'oq chaqib edi-da, po'chog'ini oyoq ostiga tashladi». Voqea tuguni vazifasini o'tovchi shu xabar bola diqqatini bir erga to'plab olishiga ko'mak beradi. Shundan so'ng asosiy voqea tez rivojlanadi. «Akasi Baxtiyor chopib chiqqan edi, yong'oq po'chog'ini bosib oldi». Muallif shu bilan cheklansa ham bo'lardi. Chunki yong'oq po'chog'ini bosib olishning o'zi ham nihoyatda noxush hol. Lekin hikoyadagi tasvir bo'shashtirilmay, voqea yanada keskinlashtiriladi: «po'choq oyog'iga kirib, qonatdi». Darhaqiqat, agar uchun muallif tafsilot va voqeani aniq va hayotiy ko'rsatadi. Hikoya yong'oq po'chog'ini shunchaki bosib olganda, Rayhon buni ko'rib u darajada ta'sirlanmasligi va qilgan ishi noma'qulligini his qilmasligi mumkin edi. Shuning tugallanmasida bolaning holati quyidagicha tasvirlanadi: «Baxtiyor yig'ladi. Baxtiyorga qo'shilib Rayhon ham yig'ladi». Ana shu xulosa tinglovining hikoyadagi obrazlar ruhiyatini to'liq his etishiga xizmat qiladi. I. Qo'chqortoyev "Xandalak" hikoyasida hamma vaqt birovni kamsitish evaziga maqtanadigan bola obrazini yaratarar ekan, dialog usulidan unumli foydalangan. Hikoya syujetidan ma'lumki, aka-uka handalak va qovun ekishgan. Uka-Karimning handalagi pishgan, aka-Odilniki esa hali xom. Onasi paykallarni oralab ko'rgandan so'ng, Karim bilan ona o'rtasida shunday suhbat bo'lib o'tadi:

“ – O'rgilay Bolalarimdan! – dedi. – Qovuning pishibdi-ku qo'zichog'im.

- Odilniki xom! – dedi Karim gerdayib. – Uning qovuni hali pishmagan.

- Odilning qovuni hali yetilmagan-da, o'g'lim, - dedi Qumri xola.

-Meniki yetilgan! Yana maqtandi Karim” muallif ortiqcha izohsiz bola

tabiatidagi kamchilikning . yoshdagi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lishiga erisha olgan. Chunki dialogdan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Karim handalagi pishgani uchun shu darajada sevinayotgani yo‘q, balki akasi – Odilning qovuni

xom bo‘lib, o‘ziniki pishganidan ko‘proq sevinmoqda. Hikoyaning keyingi epizodidagi qahramon nutqi orqali uning tabiati yanada yaqqol namoyon bo‘lgan. Karim akasining oldiga borib:

“ – Sening qovuning xom! – dedi. Odil indamadi.

- Mening handalagim pishgan, -deb yana gapirdi Karim. – Mazza qilib o‘zim yeyman. Birini erta bilan, birini tushda, yana birini kechqurun yeyman. Senga bermayman”. Muallif bola obrazini nutqi orqali yaratar ekan, unga xos bo‘lgan soddadillik va beg‘uborlikni ham yorqin ko‘rsata olgan.

Bolalar adabiyotida yaratilgan obrazlar xuddi kattalar adabiyotidagi kabi umumlashgan va o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. A.M.Gorkiyning tipik obraz yaratish haqidagi quyidagi so‘zlarini bolalar adabiyotiga ham to‘liq tadbqiq etish mumkin: “...yozuvchi yigirmalab, elliklab, yuzlab do‘kondorlar, amaldorlar, ishchilar ichidan eng xarakterli belgilar odatlar, didlar, imo-ishoralar, harakatlar, e‘tiqodlar, nutq usullari va boshqa xususiyatlarni ajratib ola bilsa, ularni ajratib olib, yakka bir do‘kondor, amaldor, ishchi qiyofasida birlashtira olsa, shu usul bilan u “tip” yaratgan bo‘ladi va bu san’at bo‘ladi”.

Tabiiyki, bolalar hikoyasida ham individual obraz yaratishda portret tasviridan foydalaniladi. Lekin unda qahramonlar portretiga oid bir-ikki shtrixgina ko‘rsatiladi. Masalan, «Zumrad. jamalak sochli, puchuqqina qiz». Bolalar uchun yozilgan ko‘pgina hikoyalarni kuzatganimizda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, aksariyat hollarda yozuvchilar qahramonning fe‘l-atvoriga oid biron xususiyatni qayd etib, so‘ng voqea rivojida ana shu xususiyatni to‘ldirib, yoritib borishgan. Masalan. N.Orifjonovning «Shish» hikoyasidagi Abdumutalga onasi «yuz-qo‘lingni yuvib ol, so‘ng qovunni so‘yamiz», deydi. Bola ko‘nmaydi. Muallif bolaning keyingi harakatini tasvirlar ekan, Abdumutalga xos xususiyatni bitta so‘z bilan qayd etib o‘tadi: «Abdumutal



qaysar bola, bo'rib pichoqni topib keldi-da, qovunni so'ya boshladi». Yana bir misolga murojaat qilaylik:

A.Jo'raevning «Men shira emasman-ku» nomli hikoyasining qahramoni «Ahmad choyga rosa murabbo qo'shib ichdi. Murabbo avval qo'liga, so'ngra betiga yopishdi. Biroq u yuz-qo'lini yuvishni xayoliga ham keltirmadi. Uyinchiq mashinasini «g'ing -g'ing» ettirib oldinga, orqaga hayday boshladi».Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, hikoya qahramonlari qandaydir mavhum bola shaklida emas balki biron xususiyati bilan atrofdagilardan ajralib turuvchi aniq qiyofa egasidir. Muallif (birinchi misolda) qahramonning «qaysar» ekanligi haqida ma'lumot beradi. Keyin esa shu ta'rifni isbotlovchi aniq voqeani keltiradi. Abdumutal «borib pichoqni topib keldi-da, qovunni so'ya boshladi».A. Irisovning «Tosh» hikoyasini olib ko'raylik. «Bir bola yo'lda ketayotsa, oyoq ostida kattagina bir tosh yotgan ekan». Bola: «Men toshga qoqilmay o'tib oldim, kerak odam o'zi surib olar» deb toshni chetga surib qo'ymabdi».Bu misolda bolani individuallashtirib, bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishiga xizmat qilayotgan narsa uning tabiatidagi yalqovlikni ko'rsatuvchi xayolidir. Ehtimol boshqa bola bo'lganida, hech narsani xayoliga ham keltirmay, toshni yo'l chetiga olib qo'ygan bo'lardi. Yoki yana bir boshqa bola: «Eh birorta odam shu toshga qoqilib tushsa, mazza qilib kulardim»,— deb quvlik bilan o'ylasa, boshqa bir bola:«Bu tosh qayoqdan keldiykin, kecha yo'q edi»— deb sinchkovlik,qiziquvchanlik bilan o'ylardi.Yana boshqa bir bola esa: «Shu toshga birortasi yiqilsa, zo'r bo'lardi-da»,— deb ichi qoralik bilan o'ylashi mumkin edi, Xullas, kim qanday o'ylamasin, o'zini qanday tutmasin, hikoyada xuddi shu ko'rinishda har bir bolaning aynan o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. «Tosh» hikoyasining qahramoni ham xuddi shu xayol bilan . yoshdagi ko'z o'ngida yalqov, erinchoq, faqat o'zini o'ylaydigan bola sifatida gavdalanadi.Ya.Sa'dullaevaning «Qaytarib ber» nomli hikoyasida qahramon obrazini individuallashtirish yuqoridagi

hikoyalardan boshqacharoq.Unda muallif Nodir obrazida bolalariga xos tipik xususiyatlarni umumlashtirish bilan birga, faqat Nodirning o'ziga xos, uni asardagi boshqa personajlardan ajratib turuvchi xususiyatlarini ham ko'rsata olgan.

Hikoyada aks etgan voqea faqat bolalar dunyosiga xos. Shuning uchun ham faqat ularga xoski, bu kabi boshqacha yo'l tutadi. Nodir «hali bolalar nima bo'layotganiga tushunib etmayoq orqasiga qaytib, to'g'ri Go'zalning oldiga borib:

— Qaytarib ber! Sovg'amni qaytarib ber!—dedi.

U qo'shni qizga ayiqcha sovg'a qilgan edi».

Hikoya syujetiga asos bo'lgan voqeadan, muallif faqat bola qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni real tasvirlagan va uni Nodir obrazi orqali badiiy umumlashtirgan.Adiba voqeadan xulosa chiqarmaydi. Lekin hikoyadagi engil yumordan, Gulshodning «tarbiya»sidan . yoshdagi-bolalar mehmondorchilikda, tengdoshlar davrasida o'zlarini qanday tutishi lozimligi haqida tegishli xulosa chiqarib oladilar.

U. Hoshimovning «Chana», F. Musajonovning «Eng yaxshi chana» va YO.Rahimovaning «Chana» hikoyalarida ham qahramonlarning tipik va o'ziga xos obrazi yaratilgan.Uch asar sarlavhasidan bilinib turibdiki, ular uchun bir badiiy detal (chana) tanlab olingan, ular bolalarning qish faslidagi eng sevimli o'yinlaridan biri (chana uchish) tasviriga bag'ishlangan. Shu jihatdan, tabiiyki, ba'zi o'xshash tomonlari ham bor. Masalan, uch hikoya ham xabardan boshlanadi: «Farhodning dadasi chana olib keldi» (U. Hoshimov); «Latifjonning adasi s o'zining ustidan chiqdi, unga rostdan ham juda chiroyli chana olib keldi» (F. Musajonov); «Dilshodning chanasi bor» (YO. Rahimova).

U. Hoshimov hikoyasidagi chananing tashqi ko'rinishi «sirpanchiq, qanotlari yaraq-yaraq qilib» tursa, F. Musajonov hikoyasida chananing «oldingi ikkala yog'ochi xuddi qo'chqorning shoxiga o'xshab buralib ketgan», YO.Rahimova hikoyasidagi chana esa «katta va baquvvat» shaklda

tasvirlanadi. To'g'ri, uch muallifning hikoyasidagi g'oya voqeaning bir xil mantiqiy qurilmasi: bola — chana — bolalar asosida ochiladi. Lekin uch hikoya ham mustaqil asar. Ular aniq bir narsani tasvirlash, obraz yaratish usullari, g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyati jihatidan bir-biriga o'xshamaydi.

Ma'lumki, bolalar ichki hissiyotlarini yashirishni bilishmaydi. Hikoyada bu tipik holat to'g'ri ifoda etilgan. Farhodning o'rtoqlari uning chanasini ko'rish-ganda ochiqko'ngillik "bilan unga havas qilishadi. Lekin hammaning diqqat-e'tibori o'ziga qaratilganligini ko'rgan Farhod ochiq-oydin kekkayib ketadi. Chanasini hech kimga bermay, yolg'iz o'zi uchadi. Muallif qahramonining harakatlariga aralashmaydi, balki uni zimdan kuzatadi. Lekin uning bo'layotgan voqealarni badiiy tasvirlab, ularga baho berayotganligi sezilib turadi. Masalan, Farhod «Tepalikning eng ustiga chiqib, chanaga o'tirib oldi. Keyin oyog'i bilan bir siltagan edi, chana shuvillab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga qor uchqunlari urilar, chana esa qushdek uchib borar, uning qulog'i ostida shamol g'uvillar, ammo sovqotmas edi. «Maza!»<sup>1</sup> Ha, «mazza». Lekin. . . Hikoyada ana shu «lekin» ham ustalik bilan ko'rsatilgan. Nihoyat, Farhod charchaydi va shundan keyin bolalarni o'zi bilan «galma-gal» uchishga chaqiradi. Muallif shu o'rinda antiteza usulidan foydalanadi. Hikoya boshida bolalar Farhodga «meni uchir», «galma-galdan uchaylik» deb yalinishgan va Farhod ko'nmagan edi. Hikoyaning oxirida esa Farhod bolalarga yalinadi, ular esa ko'nishmaydi. Shunday qilib, Farhod dramatik vaziyat U nima qilishini bilmay, «yig'lab yuboradi. Shundagina u otasining nasihatining ma'nosiga tushunib etadi. Demak, bolalar o'zlari bilmagan holda Farhodni jazolashadi va bu jazodan u o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Yo. Rahimovning «Chana» hikoyasining qahramoni Dilshod ham yuqoridagi hikoya qahramoni Farhodday chanasini hech kimga bermay, bir o'zi uchadi. Lekin U. Hoshimovning hikoyasida boladagi takabburlik, qizg'anchilikni ko'rsatish birinchi o'ringa chiqarilgan bo'lsa, Yo. Rahimova hikoyasida o'rtoqchilikning gashti, fayzi ulug'lanadi. Shuning uchun YO. Rahimova

hikoya davomida yolg'iz o'zi chana uchayotgan Dilshodni birgalikda quvnab o'ynayotgan bolalar bilan qarama-qarshi tarzda tasvirlaydi: bolalar «bir-birlarining etaklaridan ushlab, «poezd» bo'lib olishgan, tepalikdan sirpanib tushisharkan, bir-birlariga urilib ketishar, qiyqirib qorga dumalashardi».

Dilshod esa bir o'zi chanasida rosa u yoqdan-bu yoqqa uchadi. Qarama-qarshi qo'yish usulida tasvirlash hikoya oxirigacha izchil davom etadi. Muallif Dilshodning ichki kechinmalarini ham uning tabiatiga mos ravishda haqqoniy tasvirlaydi.

Biz, kattalar bolalarga olib bergan o'yinchoqlarimizni doimo ehtiyotlab o'ynashlarini, toza, ozoda tutishlarini uqtiramiz. Bolalarlarni bunday tartib-qoidalariga odatlantirish, albatta, kerak. Lekin hamma bolalar ham bu tartib-qoidalar mohiyatini to'g'ri tushunmaydi. Natijada ayrim bolalar o'yinchoqlarini ehtiyot qilish, asrash maqsadida ularni o'z o'rtoqlariga berish u yoqda tursin, hatto kir-iflos bo'lishidan va buzilishidan qo'rqib, o'zlari ham o'ynamay, avaylab as-raydilar. Bu esa avvalambor, bolani bolalik olamidan mahrum qilsa, ikkinchidan, uning tabiatida buyumparastlik, buyumni odamdan ustun qo'yish kabi salbiy xususiyatlarni paydo qiladi. Bu nihoyatda muhim masalaga jiddiy e'tibor berish kattalarning burchidir. F. Musajonovning «Eng yaxshi chana» hikoyasining muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, unda ana shu g'oya badiiy mahorat bilan talqin etilgan. Muallif yuqoridagi hikoyalardan farqli tarzda qahramonini to'gridan-to'g'ri bolalar orasiga olib kirmaydi. Unda dastlab Latifjonni dadasi chanada «sayhonda ikki marta aylantir»gani qayd etiladi. Bu bilan muallif otaning o'z o'g'liga bo'lgan alohida e'tiborini ta'kidlaydi. Bu hikoyaning yuqoridagi ikki hikoyadan yana bir farqli tomoni shundaki, ulardagi qahramonlar (Farhod va Dilshod) yakka o'zlari tepalikda uchishadi. Bu hikoyadagi Latifjon uchayotgan tepalik esa bolalar bilan gavjum. Adibning mahorati shundaki, ana shu bolalar davrasida qahramonining o'ziga xos obrazini yaratadi. Latifjon birinchi marta chanada uchish uchun

tepalikka chiqqanida shunday voqea ro'y beradi: «u chanasiga o'tirib, endi pastga uchmoqchi edi, kimdir itarib yubordi, chana pastga eldek uchdi. Latifjon chanasiga qapishib ko'zlarini chirt yumib oldi. Bir mahal «taraq etib» bir narsaga urildi. Ko'zini ochib qarasa, boshqa bolaning chanasiga urilib ketibdi.

Latifjon shoshib o'rnidan turib, chanasini ko'targanicha chetga chiqdi, keyin erga qo'yib sinchiklab ko'zdan kechirdi. Bitta yog'ochining bo'yog'i sal ko'chibdi, xolos. Ammo shu ham Latifjonning ta'bini xira qildi, go'yo chanasini emas, o'zining badani qirilgandek yuragi achishdi». Albatta, Latifjonning holatini . yoshdagi-bolalar to'g'ri tushunadi, his qiladi. Chunki Latifjon o'zi nihoyatda yaxshi ko'rib qolgan yangi chanasida birinchi marta mustaqil uchmoqchi edi. Ro'y bergan «ko'ngilsiz» voqea esa uni ranjitdi. Lekin bunda eng muhim fikr «ranjish» emas, balki qahramon ongidagi o'zidan ham, o'rtoqlaridan ham buyumini ustun qo'yishini alohida qayd etishdir. Latifjon tabiatidagi bu xususiyat hikoyaning keyingi epizodida qo'llangan tazod usuli bilan tasvirlash orqali yana ham keng ochib berilgan. Latifjon «hadiksirab, tepalikka yaqinlashdi. Chanasiga o'tirib, endi pastga uchmoqchi bo'lgan edi, or-qasiga bitta bola osildi. Uning ketidan boshqasi. Hademay, chanasining ketida uzun «dum» paydo bo'ldi. Latifjonning quloqlari ostida shamol vizillar, chana pastga o'qdek uchib borardi. Birdan kutilmagan hodisa ro'y berdi: Latifjonlarning oldida konki uchib tushayotgan bola «gup» etib yiqildi. Chana borib unga urildi. Latifjon ham, «dum»i ham umbaloq oshib tushdilar. Lekin hech kim xafa bo'lmadi: birov shodon qiyqirib, birov xoxolab oyoqda tura boshladi. Latifjon esa tura solib chanasiga yopishdi, orqa-o'ngini o'girib, ko'zdan kechira boshladi. So'ng xo'mrayganicha sayhonni tark etdi». Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, Latifjon tabiatidagi chanasiga bo'lgan o'ta mehr, ortiqcha muhabbat, uning eskib qolishidan qo'rqishi uni o'rtoqlari davrasidagi «shodon qiyqirish», «xoxolab» kulish, orombaxsh lazzatlanishdan mahrum etmoqda. Tabiiyki,

undagi bu «kasallik»ni davolash kerak.

Albatta, qahramon bu hikoya ta'siri tufayli aybini darhol tushunib, aniq xulosaga kelmaydi. Agar shunday qilinganida, asar sun'iy chiqqan bo'lardi. F.Musajonov bola ruhiyatini o'ta nozik his qiladigan yozuvchi. U otasining hikoyasini eshitgandan keyin Latifjonda ro'y bergan o'zgarishni shunday tasvirlaydi: «Latifjon adasining gapiga yaxshi tushunolmadi.

Lekin xuddi ayb qilib qo'ygandek yuragida g'ashlik paydo bo'ldi:

—Ertadan boshlab ayamasdan uchaman,— dedi Latifjon.

—Bu boshqa gap,— dedi adasi suyunib».

Yozuvchi shu joyda hikoyasiga so'nggi nuqta qo'ysa ham bo'lardi. Ammo u asarni kutilmagan xulosa-tasvir bilan yakunlaydi: «Ertasiga ertalab Latifjon o'rnidan turib, derazadan tashqariga qarasa, osmonda quyosh charaqlab turar, kechagi qorlar erib, yer shilta bo'lib yotardi». Bu tasvir-xulosa faqat hikoya qahramoni Latifjon qalbidagina emas, balki uni maroq bilan tinglab o'tirgan bolalar qalbida ham achinish, afsuslanish hissiyotlarini uyg'otadi. Bu hissiyot esa bolalarda endigina paydo bo'la boshlagan xudbinlik, har xil buyumlarga ortiqcha mehr qo'yish kabi salbiy xususiyatlar uchqunlarining so'lishida katta amaliy rol o'ynaydi. R. Azizxo'jaevning bolalar qaltis hazillarining oqibatini ko'rsatuvchi «Hazil», «Sovuq qiliq» kabi hikoyalarda ham bola tabiati ishonarli yaratilgan.

Har ikkala hikoyada ham aniq hayotiy voqealar tasviri beriladi. Ikkala hikoya ham tinch, osoyishta ohangda boshlanadi. «Hazil» hikoyasi onaning ovqat pishirayotgan, bolalarining esa ahil o'ynayotgan vaqtdan boshlanadi. So'ng muallif voqeadan ozgina chekinib, qahramoni Hasanga ta'rif beradi: «Hasan hazilkashroq edi. U hamisha Husanga tegajog'lik qilar, ba'zida unga sezdirmay, oldidagi narsalarni almashtirib qo'yar edi»<sup>1</sup>. Hikoyada ana shu fikr qandaydir kutilmagan voqea sodir bo'lishidan darak beruvchi fon vazifasini o'taydi. Darhaqiqat, hikoyaning davomida hech kutilmagan dramatik holat vujudga keladi. Hasan ukasi o'tiray deb turgan «stulchasini orqaga surib» qo'yadi. Husan chalqanchasiga qulab tushadi.

Muallif bolani ayab voqeani jo'nlashtirib tasvirlashga harakat qilmagan, balki dramatik vaziyatni juda keskin ko'rsatgan. Husan shunchaki yomon yiqilmaydi, balki hushidan ketib qoladi. «Qo'zlari olayib, qorasi yuqori tortib ketadi». Albatta, Hasan ukasi bilan hazillashib, uning ustidan kulish niyatida bu ishni qilgan edi. Oqibati bu darajada og'ir bo'lishini kutmagandi.

Muallif «hazillashishing tagi zil» bo'lishini, hazil ham me'yorida kulgi keltirishini, aks holda og'ir oqibat bilan tugashini haqqoniy ko'rsata olgan.

Bolalar adabiyoti hikoyalarida insonning muhit bilan bog'liqligi, turli-tuman sharoitlarning bola tabiatining shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siriga ham e'tibor beriladi. Masalan, shu jihatdan M.Jaloliddinovaning «Buvi va nevara», T.Rasulovning «Hammamizniki» hikoyalarini ko'rib chiqaylik. Uch hikoyada ham maktabga yangi kelgan bolalarning tabiatidagi ijobiy sifatlarning paydo bo'lishida jamoa ko'rsatgan samarali ta'sir aks etgan. M. Jaloliddinovaning hikoyasi M. Murodov va T. Rasulov hikoyalaridan ko'p tomonlamaligi bilan ajralib turadi. Unda Bolalar o'sgan oila sharoiti, bola tabiatining o'zgarishiga turtki bo'lgan . muhiti keng tasvirlangan. Muallifning mahorati shundaki, u hikoya qahramoni Anvarning xatti-harakatlari bilan u o'sgan muhitni o'zaro bog'liq tarzda tasvirlay olgan. Anvar — oilada yolg'iz farzand. Dadasi, oyisi va buvisining butun diqqat-e'tibori unda. Bunga o'rgangan bola tabiatida tabiiy ravishda xudbinlik ko'rinishlari shakllana boradi. Hikoya davomida Anvar borgan sari o'z «men»ini hamma narsadan ustun qo'ya boshlaydi. Xohlagancha injiqlik va erkalik qiladi. U biladiki, bu xatti-harakatlarni chidam bilan ko'taruvchilar bor. Shuning uchun undagi bu xususiyatlar tobora shakllanib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi Anvar o'zini bunday tutishida hech qanday notabiiylik sezmaydi.

Muallif tabiatida xudbinlik xislatlari shakllangan bolaga . muhiti ta'sirini to'g'ri ko'rsata olgan. Albatta, . muhiti bilan uy sharoiti o'rtasida

keskin farq mavjud. Muallif bola tabiatini ochishda ana shu nomutanosiblikni ko'rsatishga harakat qilgan. Masalan: «qo'ng'iroq sochli qiz qo'lidagi kitobini vagonga o'tkazmoqchi bo'lib qolganida, Anvar darrov qovog'ini solib oldi.

— Tegma kitobimga!

— Senikimi?

— Ho, bo'lmasa kimniki bo'lar edi? Menga muallima opamla berdilar-ku!

— Voy anuvinimi, muallima opamniki, Xadicha Qodirovna-yu!

— Sen bilasanmi, mening buvim biladimi?»

Ko'rinib turibdiki, bola o'z «men»idan boshqa hech kimni, hech narsani tan olishni istamayapti. Undagi xudbinlikka e'tibor berilsa, u kattalardagi xudbinlikdan farqli ravishda nihoyatda sodda ko'rinishda, bola tabiatiga moye qilib ko'rsatilgan. Anvar muallima kitob berdimi, demak, bu o'zinniki bo'ldi deb o'ylaydi va boshqa bolaning ana shu kitob o'qishini tasavvur ham qilolmaydi. Buvisi muallima «muallima opa» dedimi, demak, u aslo «Xadicha Qodirovna» bo'lishi mumkin emas. U kerak bo'lsa bu haqda ishonch bilan bahslashadi. Ammo, maktabdagi sharoit butunlay boshqacha ekan.

Kitobni boshqalar ham o'qishi mumkin, hamma bolalar «o'rtoq»lari hisoblanar, kiyimlarini birov echib qo'ymas, balki o'zi echib, o'rtoqlari singari stulchalarga «taxlab qo'yishi» kerak ekan. Albatta, bu sharoit dastlab «xudbin» bolaga yoqmaydi. U qo'lidan kelganicha bunga qarshilik ko'rsatadi.

Muallif bola ruhiyatidagi o'zgarish jarayonini uning tabiatiga moye tarzda ko'rsatishga harakat qilgan. Hamma vaqt o'z «men»ini birinchi o'ringa qo'ygan, o'zini kamchiliksiz deb bilgan Anvar ko'p jihatdan tengdoshlaridan orqada ekanligini seza boshlaydi. Muallif qahramoni holatini chuqurroq ochish maqsadida «bolalardan biri»ning o'z hayratini oshkora aytganini ko'rsatadi: «Voy qaranglar, Anvar chaqaloq ekan.

Kiyimini birovga echtirar ekan!



Bolalar kulishdi. Anvar qizarib ketdi».

Xijolat ichida qolgan Anvarga bu gap, bolalarning kulgisi qattiq ta'sir qiladi. Bolalar jamoasi ham nihoyatda katta kuch. Bu kuch ta'sirida bola tabiatida tub o'zgarish ro'y beradi. Hikoya qahramoni Anvar ham jamoada tan olingan axloq qoidalarini o'zlashtirib olishga, unga amal qilishga harakat qiladi. Unda asta-sekin o'rtoqlik hissi uyg'onadi.

Atrofdagilarga nisbatan hurmat bilan qaray boshlaydi, tabiatidagi xudbinlik esa tobora kamaya boshlaydi. Hikoya so'nggida xuddi uning boshlanishidagi kabi buvi va nevara birga qolishadi. Ammo endi Anvar hikoya boshidagi injiq, erka, birovning qiynalashini his qilmaydigan bola emas. U tabiatida ijobiy sifatlar tarkib topa boshlagan bola sifatida . yoshdagi-bolaning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Hikoyada bolalar qalbida kattalarga va jamoaga nisbatan muhabbat shu tarzda uyg'otiladi. Umuman, hikoya tahlilidan ko'rdikki, bola tabiatining shakllanishida jamoaning roli nihoyatda kattadir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek yozuvchilarining bolalar uchun yaratgan asarlari orasida ularning ma'naviy olamiga ijobiy ta'sir etadigan, qalblarini hayajonlantiradigan, badiiylik va obrazli tafakkurdan tashkil topgan hikoyalarini ko'plab topish mumkin.

## **Adabiyotlar**

- 1.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. –T.:“Ma’naviyat”, 2008. –176 b.
- 2.Karimov I.A. “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” (Oliy Majlisning 7-chaqiriq IX sessiyasida so’zlangan nutqi). –T.: “Sharq”, 1997.
- 3.Muhammadyorova P. Sharlaruchdi.— T.: “Fan”, 1981.
- 4.Mahmudov L. Sirli xat.— T.: “Fan”, 1997.
- 5.Musajon F. Tekin tomosha. T.: “Fan”, 1989.
- 6.Murodov M. Maktab bola.— T.: “Fan”, 1985.
- 7.Mirmuhsin. Hasan bilan Husan.— T.: “Fan”, 1981.
- 8.Nazir H. Yaxshi ism.— T.: “Fan”, 1982.
- 9.Sa’dullaeva Ya. Qog’oz qush.- Toshkent, 1979.
- 10.Sa’dullaeva Ya. Bekinmachoq.- T.: “Yulduzcha” 1987.

AKRAMOVA MUHAYYONING

**BOLALAR HIKOYACHILIGIDA OBRAZ YARATISH MASALASI**

mavzusidagi referatiga

**TAQRIZ**

Mazkur referat mavzu g'oyat muhim va dolzarb bo'lib, unda ilmiy ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi, uslubiyati va uslublari, predmeti va ob'yekti, ilmiy ahamiyati, hajmi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Referatning bosh maqsadi sifatida o'zbek adabiyotshunosligi nazariyasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asnosida badiiy asar kompozitsiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, shakllanishi, syujet, uning turlari, komponentlari, konflikt va uning turlari va taraqqiyotining mukammal ilmiy tarixi badiiy adabiyotda tutgan o'rni, ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Referatning ob'ekti va manbalari sifatida esa bolalar adabiyotning o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri aniqlik va ravshanlikdir. Chex shoiri Ya.Olbrax qayd etganidek, "Bolalar uchun yozayotganda "daraxtga qushcha o'tiribdi" kabi umumiy tarzda emas, balki "Olxa (zirk) daraxtida sariq chumchuq o'tiribdi" shaklida aniq yozish kerak". O'zbek yozuvchilarining bolalar uchun yozgan hikoyalarining ko'pchiligida ana shu talablarga rioya qilingan. Shu nuqtai nazardan R.Azizxo'jaevning «Oyijon» va A.Irisovning «Bilmay qolib» nomli hikoyalari personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etishi tahlil jarayonida ochib berilgan.

Tahlil jarayonida hikoyalar syujeti voqealardan, voqealar esa bolalar obrazlarining xatti-harakatlari, o`zaro munosabatlaridan tarkib topgani bois ham uni umumlashtiruvchi voqealar sistemasi sifatida ta`riflanishiga oid asosli fikrlar keltirilgan.

Taqrizchi: f.f.n. S.Jumayeva

AKRAMOVA MUHAYYONING  
**BOLALAR HIKOYACHILIGIDA OBRAZ YARATISH MASALASI**  
mavzusidagi referatiga

**TAQRIZ**

Badiiy asar syujeti voqealardan, voqealar esa personajlarning xatti-harakatlari, o`zaro murakkab munosabatlari, ziddiyatlaridan tarkib topgani bois ham uni hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar sistemasi sifatida ta`riflanadi. Hikoyalarda bolalar qalbida kattalarga va jamoaga nisbatan muhabbat shu tarzda uyg`otiladi. Umuman, hikoya tahlilidan ko`rdikki, bola tabiatining shakllanishida jamoaning roli nihoyatda kattadir.

Bolalar adabiyoti hikoyalarida insonning muhit bilan bog`liqligi, turli-tuman sharoitlarning bola tabiatining shakllanishiga ko`rsatadigan ta`siriga ham e`tibor beriladi. Masalan, shu jihatdan M.Jaloliddinovaning «Buvi va nevara», T.Rasulovning «Hammamizniki» hikoyalarini ko`rib chiqaylik. Uch hikoyada ham maktabga yangi kelgan bolalarning tabiatidagi ijobiy sifatlarning paydo bo`lshida jamoa ko`rsatgan samarali ta`sir aks ettiigan. Shunga ko`ra, ushbu tadqiqot ishi g`oyat muhim va dolzarbdir.

Mazkur referatda bu boradagi fikrlar bir qator badiiy asarlar tahlili asosida Hikoyada bolalar qalbida kattalarga va jamoaga nisbatan muhabbat shu tarzda uyg`otiladi. Umuman, hikoya tahlilidan ko`rdikki, bola tabiatining shakllanishida jamoaning roli nihoyatda kattadir.

yoritilgan. o`zbek yozuvchilarining bolalar uchun yaratgan asarlari orasida ularning ma`naviy olamiga ijobiy ta`sir etadigan, qalblarini hayajonlantiradigan,

badiiylik va obrazli tafakkurdan tashkil topgan hikoyalarini ko'plab topish mumkin.

Shuningdek, kichik hajmli hikoyalardagi syujet haqida ham asosli mulohazalar mavjud. Bunda bir xil hayotiy holat ichidagi o'sish, rivojlanish kuzatilishi R.Azizxo'jaevning «Oyijon» va A.Irisovning «Bilmay qolib» nomli hikoyalari misolida tahlil qilingan.